

## HUQUQ USTUNLIGI KONSEPSIYASINING MOHIYATI

**Xusanov Diyorbek Ismatilla o‘g‘li**

Farg‘ona yuridik texnikumi

“Sud-huquqiy faoliyat” yo‘nalishi

2-bosqich 43-24-guruh o‘quvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada huquq ustunligi konsepsiyasining nazariy-huquqiy mazmuni, uning huquqiy davlat, demokratiya, inson huquqlari, qonuniylik, konstitutsiyaviylik va mustaqil sud hokimiyati bilan o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilinadi. Huquq ustunligi va qonun ustunligi tushunchalarining o‘zaro nisbati ochib berilib, huquq ustunligi faqat normativ-huquqiy hujjatlarga rioya etilishini emas, balki qonunlarning erkinlik, tenglik, adolat, huquqiy aniqlik va inson qadr-qimmati kabi umuminsoniy qadriyatlarga muvofiq bo‘lishini ham talab qilishi asoslanadi.

**Kalit so‘zlar:** huquq ustunligi, qonun ustunligi, huquqiy davlat, Konstitutsiya ustunligi, inson huquqlari, qonuniylik, huquqiy aniqlik, sud mustaqilligi, davlat hokimiyati, adolat, tenglik, huquqiy madaniyat.

Huquq ustunligi zamonaviy demokratik davlatchilikning fundamental konsepsiyalaridan biri bo‘lib, davlat hokimiyatini huquq bilan cheklash, inson huquq va erkinliklarini oliy qadriyat sifatida e‘tirof etish, barchaning qonun va sud oldida tengligini ta‘minlash hamda davlat organlarining faoliyatini huquqiy mezonlarga bo‘ysundirishni nazarda tutadi. Mazkur konsepsiya davlat va jamiyat munosabatlarini shunday tashkil etishni talab qiladiki, bunda davlatning o‘zi huquqni yaratuvchi va qo‘llovchi subyekt bo‘lish bilan bir qatorda, huquq talablariga bo‘ysunuvchi subyekt sifatida ham namoyon bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasida O‘zbekiston suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat

ekanligi belgilangan. Konstitutsiyaning 15-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasida Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi so‘zsiz tan olinadi, Konstitutsiya mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi. Ushbu konstitutsiyaviy qoidalar huquq ustunligini davlat tuzumining asosiy prinsiplaridan biri sifatida mustahkamlaydi.[1]

Huquq ustunligi masalasining dolzarbligi shundaki, qabul qilingan qonunlarning ko‘pligi yoki davlat organlarining keng vakolatlarga egaligi o‘z-o‘zidan huquqiy davlat mavjudligini anglatmaydi. Huquqiy davlatning haqiqiy ko‘rsatkichi qonunlarning inson manfaatlariga xizmat qilishi, huquqni qo‘llash amaliyotining adolatliligi, mansabdor shaxslarning huquqiy javobgarligi va shaxsning o‘z huquqlarini mustaqil sud orqali samarali himoya qila olishi bilan belgilanadi. “Huquq ustunligi” tushunchasi ingliz huquqiy doktrinasidagi “rule of law” iborasining mazmuniga muvofiq keladi. Uning mohiyati huquqning davlat hokimiyatidan ustun turishi, davlat organlari, mansabdor shaxslar, yuridik va jismoniy shaxslar faoliyatining huquqiy talablar asosida amalga oshirilishida namoyon bo‘ladi.

O‘zbek huquqshunos olimi Sh.A. Saydullayev huquq ustunligini huquqiy davlatning eng muhim prinsipi sifatida baholaydi. Olimning fikricha, huquq ustunligi davlat, uning organlari va mansabdor shaxslari, fuqarolar hamda ularning turli tuzilmalari faoliyatining huquq bilan bog‘liqligi va huquqqa muvofiq ravishda amalga oshirilishini anglatadi. Shuningdek, qonun hujjatlarida erkinlik, tenglik va adolat kabi umuminsoniy-axloqiy qadriyatlar ifodalanishi hamda ular huquqni qo‘llash amaliyotiga to‘siqlarsiz joriy qilinishi lozim.[2] Muallif huquq ustunligini ta’minlash shaxs, oila, jamiyat va davlat huquqlari hamda manfaatlarini muhofaza qilish, aholining huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, fuqarolarni qonunga hurmat ruhida tarbiyalashning muhim vositasi ekanligini ta’kidlaydi.[3] Mazkur yondashuvdan kelib chiqib, huquq ustunligini faqat davlat organlarining

amaldagi qonunlarga rioya etishi sifatida tushunish yetarli emas. U huquq ijodkorligi va huquqni qo'llashning mazmuniga ham talab qo'yadi. Ya'ni qonunning rasmiy jihatdan vakolatli organ tomonidan qabul qilinganligi uni avtomatik ravishda huquqiy va adolatli qonunga aylantirmaydi. Qonun inson qadr-qimmat, erkinlik, tenglik, adolat, mutanosiblik va huquqiy aniqlik talablariga javob bergan taqdirdagina huquq ustunligi konsepsiyasiga muvofiq bo'ladi.

Sh.A. Saydullayev huquq ustunligining mazmuni huquq va davlatning o'zaro nisbati, davlat hamda uning institutlarining huquqqa bo'ysunishi bilan tavsiflanishini ko'rsatadi. Olim huquq ustunligini bir vaqtning o'zida ham amaliy-yuridik kategoriya, ham falsafiy-huquqiy konsepsiya sifatida baholaydi.[4] Huquq ustunligi amaliy kategoriya sifatida davlat organlari faoliyatining qonuniyligi, sud himoyasining samaradorligi va mansabdor shaxslarning javobgarligida namoyon bo'lsa, falsafiy-huquqiy konsepsiya sifatida huquqning adolat va erkinlikka asoslangan ijtimoiy qadriyat ekanligini ifodalaydi. Shunday qilib, huquq ustunligi davlat va jamiyat hayotida erkinlik, tenglik, adolat hamda inson qadr-qimmatiga asoslangan huquqning oliy mezon sifatida tan olinishi, davlat hokimiyatining huquq bilan cheklanishi va har bir shaxsning huquqiy himoyadan teng foydalana olishini ta'minlovchi nazariy-huquqiy prinsiplar tizimidir.

Yuridik adabiyotlarda "huquq ustunligi" va "qonun ustunligi" tushunchalari ayrim hollarda bir xil ma'noda qo'llaniladi. Biroq ularning mazmuni to'liq bir xil emas. Qonun ustunligi barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar, jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan qonunlarga qat'iy rioya etilishini, qonunosti hujjatlarining qonunlarga zid bo'lmashligini hamda ijtimoiy munosabatlarni qonun asosida tartibga solishni anglatadi. Huquq ustunligi esa qonun ustunligiga nisbatan kengroq bo'lib, qonunning mazmuniga ham talab qo'yadi. Sh.A. Saydullayevning fikricha, huquq ustunligi bilan qonun ustunligini farqlash zarur, chunki har qanday qonun

doimo huquqiy mazmunga ega bo'lasligi mumkin. Qonunda insonga huquq beruvchi, uning erkinligi, tengligi va ijtimoiy xavfsizligini ta'minlovchi qoidalar ifodalanmagan bo'lsa, huquq va qonun tushunchalari o'rtasida nomutanosiblik kelib chiqadi.[5] Shu ma'noda huquq ustunligi qonunlarning Konstitutsiya va inson huquqlariga muvofiq bo'lishi, aniq, tushunarli, barqaror va oldindan anglash mumkin bo'lgan mazmunga ega bo'lishi, barcha shaxslarga teng tatbiq etilishi, davlat organlari qarorlarining sud tomonidan tekshirilishi, huquqlarni cheklash choralarning qonuniy maqsadga muvofiq va mutanosib bo'lishi, qonunlarning orqaga qaytish kuchidan asossiz foydalanilmasligi, shaxsning qonuniy ishonchi va huquqiy xavfsizligi ta'minlanishini talab qiladi. Demak, qonun ustunligi huquq ustunligining muhim tarkibiy qismi hisoblansa-da, uning butun mazmunini qamrab olmaydi. Qonun ustunligi rasmiy-yuridik talab bo'lsa, huquq ustunligi rasmiy va moddiy talablarning uyg'unligini ifodalaydi.

Huquq ustunligi konsepsiyasi o'zaro bog'liq bir qator prinsip va kafolatlardan tashkil topadi. Konstitutsiya ustunligi huquq ustunligining birlamchi institutsional asosidir. Konstitutsiya davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini belgilaydi, ularning chegaralarini o'rnatadi va inson huquqlarini davlat faoliyatining oliy mezon sifatida mustahkamlaydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasi Konstitutsiya va qonunlarning so'zsiz ustunligini belgilab, barcha davlat organlari, tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolik jamiyati institutlari va fuqarolar Konstitutsiya hamda qonunlarga muvofiq ish yuritishini talab qiladi. Konstitutsiyaning to'g'ridan-to'g'ri amal qilishi esa shaxs o'z huquqlarini himoya qilishda faqat sohaviy qonunni emas, bevosita Konstitutsiya normalarini ham asos sifatida keltirishi mumkinligini anglatadi. Z.M. Islomov Konstitutsiya ustunligi va huquq ustunligini ta'minlash faqat huquqiy normalarning mavjudligi bilan cheklanmasligini, balki ularni qo'llovchi davlat organlari, mansabdor shaxslar va ijtimoiy tuzilmalarning samarali

faoliyati, Konstitutsiya hamda qonunlarni muhofaza qilish mexanizmlari va ijrochilik intizomi orqali namoyon bo'lishini ta'kidlaydi.[6]

Huquq ustunligining markazida inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va daxlsiz huquqlari turadi. Davlatning qonun ijodkorligi, boshqaruv va huquqni muhofaza qilish sohasidagi har qanday faoliyati inson huquqlarini ta'minlashga yo'naltirilishi lozim. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20-moddasiga muvofiq, insonning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsiz bo'lib, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklashga hech kim haqli emas. Inson bilan davlat organlarining o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyat va noaniqliklar inson foydasiga talqin etilishi belgilangan. Mazkur qoida huquq ustunligining muhim moddiy kafolatidir. Chunki u davlat manfaati bilan shaxs huquqi to'qnashgan hollarda inson foydasiga yo'naltirilgan huquqiy talqinni taqozo etadi.

Huquq ustunligi davlat organlari, mansabdor shaxslar va oddiy fuqarolar uchun alohida huquqiy tartib mavjud bo'lishini rad etadi. Hech bir shaxs lavozimi, ijtimoiy mavqei, mulkiy ahvoli yoki boshqa belgisi tufayli qonundan ustun tura olmaydi. Qonun oldidagi tenglik faqat bir xil normaning barchaga tatbiq etilishini emas, balki o'xshash holatlarga bir xil, turlicha holatlarga esa ularning obyektiv farqlarini hisobga olgan holda munosabatda bo'lishni talab qiladi. Huquq ustunligi davlat hokimiyatining bir organ yoki shaxs qo'lida cheksiz to'planishiga yo'l qo'ymaydi. Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatining vazifaviy jihatdan ajratilishi davlat hokimiyatining huquq bilan cheklanishini ta'minlaydi. Sh.A. Saydullayev hokimiyatlar bo'linishini davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud tarmoqlariga taqsimlanishi, ular o'rtasida muvozanat, tenglik, o'zaro tiyib turish va ta'sir ko'rsatish tizimining mavjudligi sifatida tushuntiradi.[7] Hokimiyatlar bo'linishi mutlaq ajralishni emas, balki vakolatlarning huquqiy taqsimlanishi va davlat organlarining bir-birini

nazorat qilishi orqali hokimiyat suiiste'mol qilinishining oldini olishni anglatadi.

Mustaqil va xolis sud huquq ustunligining eng muhim institutsional kafolatidir. Sud davlat organlarining qarorlari ustidan nazoratni amalga oshiradi, buzilgan huquqlarni tiklaydi va huquqiy nizolarni taraflarning tengligi asosida hal qiladi. O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalar va boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi. Sudyalarda mustaqil bo'lib, faqat Konstitutsiya va qonunga bo'ysunadilar.[8] Mazkur Qonunda sud hujjatlarining barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiyligi ham belgilangan. Sud mustaqilligi sudyaning muayyan ish bo'yicha tashqi ta'sirlardan xoli qaror qabul qilishi, sud faoliyatining yetarli tashkiliy va moddiy kafolatlarga ega bo'lishi, sud qarorlariga aralashganlik uchun javobgarlik belgilanishi hamda sud qarorlarining ijro etilishini anglatadi.

Huquqiy aniqlik shaxsning huquqiy normalar mazmuni va o'z xatti-harakatlarining huquqiy oqibatlarini oldindan anglay olishini talab qiladi. Noaniq, bir-biriga zid, tez-tez o'zgaradigan yoki turlicha talqin qilinadigan normalar huquq ustunligiga ziddir. Huquqiy aniqlik qonunlarning rasman e'lon qilinishi, tushunarli bayon qilinishi, barqarorligi, normalar o'rtasidagi ziddiyatlarning bartaraf etilishi va huquqni qo'llash amaliyotining bir xilligini qamrab oladi. Bu prinsip fuqarolarning davlatga va huquqiy tizimga nisbatan qonuniy ishonchini shakllantiradi. Huquqiy davlatda faqat fuqaro davlat oldida majburiyatlarga ega bo'lmaydi. Davlat ham shaxs oldida uning huquqlarini e'tirof etish, himoya qilish va buzilgan huquqlarni tiklash majburiyatini oladi. Davlat organi yoki mansabdor shaxsning qonunga xilof qarori, harakati yoki harakatsizligi natijasida shaxsga zarar yetkazilgan bo'lsa,

uni qoplash, qonunga xilof hujjatni bekor qilish va aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish huquq ustunligining amaliy ifodasidir.

O‘zbekistonda huquq ustunligini ta’minlashga qaratilgan islohotlar yangi tahrirdagi Konstitutsiyada “inson — jamiyat — davlat” ustuvorligi asosida mustahkamlandi. Inson huquqlarining bevosita amal qilishi, davlat organlari bilan munosabatlardagi noaniqliklarni inson foydasiga talqin qilish, sud orqali himoyalanih va davlat organlarining qarorlari ustidan shikoyat qilish huquqlari huquq ustunligining konstitutsiyaviy asosini kuchaytirdi.

Huquq ustunligiga erishish faqat yangi qonunlarni qabul qilish bilan cheklanmaydi. Amaliyotda bir qator nazariy va institutsional muammolar mavjud. Birinchidan, normativ-huquqiy hujjatlar sonining ortishi ba’zan huquqiy tartibga solishning murakkablashishiga olib keladi. Bir masala bo’yicha ko’plab qonun va qonunosti hujjatlarining mavjudligi, ular o’rtasidagi ziddiyatlar hamda tez-tez kiritiladigan o’zgartishlar shaxsning huquqiy normalarni anglashini qiyinlashtiradi. Shu sababli qonunchilikni tizimlashtirish, kodifikatsiya qilish va ortiqcha ma’muriy normalarni qisqartirish zarur. Ikkinchidan, huquqni qo’llash amaliyotida bir xillikni ta’minlash muhim. Bir xil huquqiy vaziyatlarga turlicha huquqiy baho berilishi huquqiy aniqlik va qonuniy ishonchga putur yetkazadi. Buning uchun sud qarorlarini umumlashtirish, Oliy sud tushuntirishlarining ilmiy asoslanganligini oshirish va sud qarorlarining ochiqligini ta’minlash lozim. Uchinchidan, davlat organlari qarorlarining asoslantirilganligiga qo’yiladigan talablarni kuchaytirish kerak. Har qanday ma’muriy qaror aniq huquqiy asos, tekshirilgan faktlar va mantiqiy xulosalarga tayanishi lozim. Fuqaroning huquqini cheklaydigan qarorda uning zarurligi va mutanosibligi alohida asoslantirilishi zarur. To’rtinchidan, sud mustaqilligini ta’minlash faqat sudyalarning huquqiy maqomi bilan cheklanmasligi kerak. Sudlarni moliyalashtirish, ishlarni avtomatik taqsimlash, sudyalarni tanlash va lavozimga tayinlash, ularning daxlsizligi, intizomiy javobgarligi hamda sud



qarorlariga tashqi ta'sirni bartaraf qilish tizimi bir butun kafolat sifatida faoliyat ko'rsatishi lozim. Beshinchidan, aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish talab etiladi. Qonunlarni bilmaslik, o'z huquqlarini himoya qilish mexanizmlaridan foydalanmaslik va mansabdor shaxslar qarorlarini so'zsiz qabul qilishga moyillik huquq ustunligining ijtimoiy asoslarini zaiflashtiradi. Huquqiy ta'lim faqat qonun normalarini yodlashga emas, huquqiy fikrlash, tanqidiy tahlil qilish va huquqiy vositalardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilishi lozim. Oltinchidan, mansabdor shaxslarning shaxsiy javobgarligini kuchaytirish zarur. Davlat organi nomidan qabul qilingan qonunga xilof qaror uchun faqat organning o'zi emas, qaror qabul qilgan yoki uning qabul qilinishiga sabab bo'lgan mansabdor shaxs ham belgilangan tartibda javob berishi kerak.

Huquq ustunligi konsepsiyasi huquqiy davlatning mazmun-mohiyatini ifodalovchi asosiy nazariy va amaliy prinsipdir. U davlat organlari va mansabdor shaxslarning qonunlarga formal rioya etishinigina emas, balki butun huquqiy tizimning inson qadr-qimmati, erkinlik, tenglik, adolat, huquqiy aniqlik va mutanosiblik talablariga muvofiq ishlashini nazarda tutadi. Huquq ustunligi bilan qonun ustunligi o'zaro uzviy bog'liq bo'lsa-da, ular bir xil tushunchalar emas. Qonun ustunligi qonunlarning barcha subyektlar uchun majburiyligi va iyerarxik jihatdan ustunligini anglatadi. Huquq ustunligi esa qonunning mazmunan huquqiy, adolatli va inson huquqlariga muvofiq bo'lishini ham talab qiladi.

Shunday qilib, huquq ustunligi tayyor holda shakllanadigan huquqiy tartib emas, balki davlat, fuqarolik jamiyati institutlari va fuqarolarning doimiy huquqiy faoliyati orqali qaror topadigan uzluksiz jarayondir. Uning haqiqiy mezon qabul qilingan qonunlar sonida emas, balki insonning o'z huquqlari amalda himoyalanganini his qilishi, davlat organlarining huquq bilan cheklanganligi va adolatli sud himoyasining mavjudligida namoyon bo'ladi.



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Yangi tahrir. Toshkent.: 2023-yil.
2. Saydullayev Sh.A. Davlat va huquq nazariyasi: darslik. — Toshkent: TDYU, 2021. 238-bet.
3. O‘sha manba. — 238-239-betlar.
4. O‘sha manba. — 239-bet.
5. O‘sha manba. — 239-bet.
6. Islomov Z.M. Konstitutsiya va huquq ustunligi prinsipi. — Toshkent, 2013. 38-bet.
7. Saydullayev Sh.A. Davlat va huquq nazariyasi: darslik. — Toshkent: TDYU, 2021. 83-84-betlar.
8. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 28-iyuldagi O‘RQ–703-son “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/5534923>.